

PART-12

Washington University in St. Louis
Danforth Campus



Central Eurasian Studies Society

INTERNATIONAL SCIENTIFIC-ONLINE

**CONFERENCE
ON INNOVATION IN THE
MODERN EDUCATION SYSTEM**

WASHINGTON

2021



Central Eurasian Studies Society



**INNOVATION IN THE MODERN
EDUCATION SYSTEM**

Part 12

NOVEMBER 2021

COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

Washington, USA
25th NOVEMBER 2021

INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM: a collection scientific works of the International scientific conference (25th November, 2021) – Washington, USA: "CESS", 2021. Part 12 – 390 p.

Editorial board:

Martha Merrill, PhD Kent State University, USA

David Pearce, ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva, PhD Toronto, Canada

Nikadambayeva Hilola Batirovna, Candidate of Pedagogical Sciences,
docent

Pirimov Akram Pirimovich, docent

Shodiyev Furqat Davranovich, Candidate of Technical Sciences, docent

Languages of publication: русский, english, казахша, o'zbek, limba română,
кыргыз тили, Հայերեն

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference "**INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM**". Which took place in Washington on November 25, 2021.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2021
© Authors, 2021

INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM

TABLE OF CONTENTS	
Qurbonova Farzona Shamsitullo qizi <i>PANDEMIYA DAVRIDA O'QITISHNING INNOVATSION SHAKLI YOXUD MASOFAVIY TA'LIM ISTIQBOLLARI</i>	8
Raxmanova Dilfuza Uchqunovna <i>ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR BILAN DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA ISHLASH</i>	12
Mardanova Mokhira Davron kizi Davlatova Shakhnoza Mukhammadiyevna <i>ANALYSIS OF JARGONS IN NEWSPAPER TEXTS</i>	18
Khudoyverdieva Sayyora A'zamjon qizi <i>LASER TECHNOLOGIES IN MODERN DERMATOCOSMETOLOGY</i>	22
Ergasheva Nigorxon Saidova Gulrux <i>CHILDHOOD PERIODS IN CHILDREN UNDER 1 YEAR OF AGE - "PERSONAL PERIOD"</i>	26
Дилфуза Ғазнаева <i>ЎРОЗ ҲАЙДАР ШЕЪРЛАРИ ТАҲЛИЛИ MASALASI</i>	29
Sadriddinova Nigora Khusniddin kizi <i>EXPORT POTENTIAL OF COTTON AND TEXTILE CLUSTERS AND THEIR POSITION IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN</i>	36
Mo'ydinova Nasiba komiljon qizi Raximova Gulasal Odiljon qizi <i>GRIPP KASALLIGIGA BEPARVO BO'LMANG!</i>	43
Khakimova Muattar <i>TEACHING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE IN PRIMARY SCHOOLS</i>	50
Yakubova Safiya Hamdamovna <i>INGLIZ TILINI BOSHLANGICH SINFLARDA O'QITILISHNI TURLI YANGI METODLARI VA INGLIZ TILINI O'QITISHDA TALAFFUZNING AHAMIYATI</i>	53
Tadjibayeva Dilrabo Salijanovna <i>INSON SALOMATLIGIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR</i>	56
Mirzayeva Komila Sheraliyevna <i>SHASHMAQOM-QALB SADOSI</i>	62
Rahmonova Musharraf Alisherovna Yuldasheva Xurshida Abdusalom qizi <i>KORONAVIRUS HAQIDA NIMALARNI BILISHIMIZ KERAK?</i>	67
Sh.M. Gulyamov A.A. Abduqodirov Sh.N. Mirzayev B.I. Suvonov <i>INTELLEKTUAL TEMPERATURA SENSORLARINING ISHLASH PRINTSIPI VA ULARDAGI AXBOROTNI MIKROKONTROLLERGA UZATISH VA CHOP ETISH.</i>	71
Muxlisa Rajabaliyeva Xusniddin Xaitov <i>HALIMA XUDOYBERDIYEVA IJODIDA AYOL OBRAZINING O'ZIGA XOSLIGI</i>	76
Jumaboyeva Nilufar Soyibjon qizi Bozorov Quvonchbek Dilmurod o'g'li <i>TARIXDAGI ENG MASHHUR HUKMDOR AYOLLAR</i>	82
Rasulova Tursunoy To'liqinovna <i>NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNING HUQUQ VA ERKINLIKLARI</i>	87
Якубов Максадхон Султаниязович Тураханов Акром Абдуллахакимович Тошпулатов Абборжон Мирхокимович <i>МЕТОДЫ И СРЕДСТВА, А ТАКЖЕ ФОРМИРОВАНИЯ СПОСОБНОСТЕЙ ДОПРИЗЫВНОЙ ПОДГОТОВКИ МОЛОДЕЖИ К ПРОХОЖДЕНИЮ ВОЕННОЙ СЛУЖБЫ</i>	90
Kosimova Aziza Mamayusupovna Norkulova Shahina Abdurashit kizi <i>TEACHING SPEECH SKILLS IMPORTANT TECHNOLOGIES IN ENGLISH LANGUAGE LEARNERS</i>	103
Мўминова Раъно Далабаевна	110

<p>Нишонава Паризод Вахоб кизи Журакулов Сардор Сайдулла угли Абдушукуров Умиджон Улугбек угли ТОК КЎЧАТЛАРИНИ ЕТИШТИРИШ ВА ТОКЗОР БАРПО КИЛИШ</p>	
<p>Озода Каримова Ш.С.Имяминова НЕМИС ТИЛИ ФРАЗЕОЛОГИЯСИДА ИДИОМАЛАРНИНГ СЕМАНТИК ХУСУСИЯТИ</p>	120
<p>Примкулова Покиза Шухратхон Имяминова КОНЦЕПТУАЛ МЕТАФОРЛАРНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИҚДА ТАДҚИҚИ</p>	125
<p>Эгамназаров Қобил Абдуназарович ТИЛШУНОСЛАРНИНГ ОЛМОШЛАР ТЎҒРИСИДАГИ МУЛОҲАЗАЛАРИ (ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИ МИСОЛИДА)</p>	128
<p>Марғуба Инъомовна Ҳайдарова БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА БАДИИЙ ОБРАЗЛАР ОРҚАЛИ ИЖОБИЙ ҲИСЛАТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ</p>	135
<p>Mansurova Shabnam POLIMERLARNING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI</p>	139
<p>Polvonova Roziya Rustamovna WHAT GAMES AND TECHNIQUES SHOULD BE USED TO INCREASE THE INTEREST OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN ENGLISH</p>	142
<p>Rafiqova Dilafuz Qaxxoralievna TA'LIMNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA TALABALARNING INNOVATION FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH</p>	146
<p>Sabohat Hashimova "CONVERSION" AS A WAY OF WORD FORMATION</p>	150
<p>Maxsudov V.G E.Ya. Ermetov U.Q.Safarov TECHNOLOGY OF LECTURE ORGANIZATION IN MODERN EDUCATION</p>	160
<p>Ziyodullayev Elmira Murodulla o'g'li TRANSFORMATOR MAGNIT O'ZAGIDAGI UYURMAVIY TOKLARNI KAMAYTIRISH</p>	166
<p>Akhadova Malohat THE DIFFERENCES BETWEEN WRITTEN AND SPOKEN DISCOURSE</p>	169
<p>T.Bo'fayev M.Namozova МАКТАВ О'ҚУВЧИЛАРИДА МАИШИЙ ЭЛЕКТР ЈИHOZЛАРИ SERVISI BO'YICHA TADBIRKORLIK KO'NIKIMLARINI SHAKLLANTIRISH USLUBIYOTI</p>	172
<p>Адизова Наргиза Замировна Ҳамидова Аслия Фуркатовна ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ОПУСТЫНЕННЫХ РЕГИОНОВ БУХАРА-ХИВЫ: ПРИРОДА, КЛИМАТ, ПОДВИЖНЫЕ ПОЧВОГРУНТЫ И ПЕСКИ</p>	180
<p>Muhammadjonov Bobirmirzo Botirjon o'g'li Adaxatov Xusniddin Akmaljon o'g'li O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQISODIYOT RIVOJANTIRISH YO'LLARI VA ISTIQBOLLARI</p>	190
<p>Матхолиқова Нилуфар Ш.С.Имяминова НЕМИС ТИЛИДА ФРАЗЕОЛОГИК СИНОНИМЛАРНИНГ СТРУКТУРАЛ-СЕМАНТИК ХУСУСИЯТИ</p>	196
<p>Мусурмонов Толиб Равшан ўғли М.Ҳ.Пардаев ЗОМИН ТАРИХИДА БУЮК ИПАК ЙЎЛИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ</p>	202
<p>Камалова Дилнавоз Ихтиёровна Кувватова Мохинур, Мардонова Гулноза СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ И ПРОВЕДЕНИЯ ЛАБОРАТОРНЫХ ЗАНЯТИЙ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ</p>	207

<p>Кучкарова Б.К Ёкубов К.Ё Расулова Д.М Кеулимкосова А.К COVID-19 ИНФЕКЦИЯСИНИНГ ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИДА ТАРҚАЛГАНЛИГИ ТАҲЛИЛИ</p>	<p>212</p>
<p>Адизова Наргиза Замировна СТРУКТУРООБРАЗОВАНИЕ В ПОДВИЖНЫХ ПОЧВОГРУНТАХ И ПЕСКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ РАЗЛИЧНЫХ ЗАКРЕПИТЕЛЕЙ</p>	<p>218</p>
<p>Тўйчи Ахмедов Нурсултон Анорбоев ЎЗБЕКИСТОНДА АХБОРОТ ХИЗМАТЛАРИ ФАОЛИЯТИНИНГ ҚОНУНИЙ АСОСИ</p>	<p>226</p>
<p>Абдуллаев Джамол Джамшедович Тангяриков Нормурод Сайитович МЕТАЛОПОРФИРИНЛАРНИНГ ЭРИТМАЛАРДАГИ БАРҚАРОРЛИГИ</p>	<p>229</p>
<p>Хидоят Мурод Батирович НАСОС СТАНЦИЯЛАРИНИ ҚИШ ДАВРИДА ИШЛАТИШ РЕЖИМИ ВА УСУЛЛАРИ</p>	<p>234</p>
<p>Шавқатуллоев Дўстмуҳаммад Отамуродов Самандар Муродуллоев Муродулло ПАНЖИШЕР ВИЛОЯТИДАГИ ҚАРШИЛИК ҲАРАКАТИ ВА ҲАРАКАТ НАМОЙАНДАЛАРИ</p>	<p>238</p>
<p>Разиков Ф.И Тошпўлатов А.Ю Расулов Ш.М. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ЭХИНОКОККОЗНИНГ АҲОЛИСИ ЎРТАСИДА ТАРҚАЛГАНЛИГИ ВА ОЛДИНИ ОЛИШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ</p>	<p>242</p>
<p>Мирахмедова Ирода Анвар кизи РУССКИЙ ЯЗЫК КАК ЯЗЫК МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО ОБЩЕНИЯ</p>	<p>249</p>
<p>Садикова Машхура Идилловна Ботиров Сарвар ДИЗЕЛЬ ЁҚИЛҒИЛАРИ УЧУН ДИПРЕССОР ҚўНДИРМАЛАРНИ ЯРАТИШ</p>	<p>253</p>
<p>Исмаилов С.И Шамансурова З.М Алимова Н.У Бурхонова А.Р Ё.Х.Туракулова ВЛИЯНИЕ ГОРМОНА РОСТА НА ОБМЕННЫЕ ПРОЦЕССЫ В РАЗНЫХ ТКАНЯХ</p>	<p>256</p>
<p>Сулётбаева Элла Серикбаевна СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОЦЕНКИ СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЕЙ У МОЛОДЁЖИ</p>	<p>262</p>
<p>Ишонкулова Гавхар Норкуловна ИЗМЕНЕНИЯ НАТУРА В ЗЕРНА ПОД ВЛИЯНИЕМ ПОЧВЕННО-КЛИМАТИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ И СРОКОВ УБОРКИ</p>	<p>266</p>
<p>S. S. Isakov PROBLEMS OF THE ORGANIZATION OF THE PROTECTED ZONE OF ARCHITECTURAL MONUMENTS OF THE UZBEK REPUBLIC</p>	<p>269</p>
<p>Сабирова Дилором Кабуловна Кобилова Дилдора Фарходовна Сайдимуродов Мавлонхужа Жахонгирхужа угли ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ ДОРОЖНО-СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ</p>	<p>278</p>
<p>Р. Ярматов Усмонов Мухриддин ШАРОФ РАШИДОВ – АТОҚЛИ ДАВЛАТ ВА ЖАМОАТ АРБОБИ</p>	<p>282</p>
<p>Хошимова Шоира Косимовна Сабиров Немат Казакбаевич СИМВОЛИКА ПОЭЗИИ МУСЫ ДЖАЛИЛЯ</p>	<p>295</p>
<p>Намоз Толипов ЎЗБЕКИСТОНДА ЭЛЕКТРОТЕХНИКА САНОАТИ: КЕЧА ВА БУГУН</p>	<p>301</p>

INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM

Zarifa Mamedova Hakimdjanovna KORRUPSIYA – TARAQQIYOT KUSHANDASI	310
Uliqov Ulug'xon Arslonxon o'g'li Yetmishboyev Shaxodbek Ma'murjon o'g'li YOSHLAR TARBIYASIDA KITOBXONLIK MADANIYATINING AHAMIYATI	313
Mamatqulova Gulzoda Xolmurodovna ISTE' MOLCHILARNI HUQUQLARINI HIMOYA QILISH	316
Abdugofurov Shohjaxon Muhammadqobul o'g'li Arabboyev Asliddin Rafiqjon o'g'li THE IMPORTANCE AND ROLE OF TRANSPORT IN EXPORT AND IMPORT	319
Урумбаева Айгуль Нагметовна ФЕНОМЕН ИГРУШКИ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЕЁ ОТБОРА ДЛЯ ДЕТЕЙ	323
Haqberdiyeva Kamola Jahongir qizi THE COMPARATIVE ANALYSIS OF THE CLASSIFICATION OF SUFFIXES IN THE UZBEK AND THE ENGLISH LANGUAGES	328
Холиқов Азамат Қаҳрамонович КЎРИШИДА МУАММОСИ БЎЛГАН БИТИРУВЧИ ЁШЛАРНИ ЗАМОНАВИЙ КАСБ ХУНАРЛАРГА ЎРГАТИШНИНГ МУАММО ВА ЕЧИМЛАРИ	334
Худойбердиева Моҳира Муҳаммадиевна ЁШ ПЕДАГОГЛАРНИ МАҲОРАТИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ	340
Фахриддин Толибов Худойбердиевич КЎРИШИДА МУАММОСИ БЎЛГАН ЎҚУВЧИЛАРДА ТАРИХИЙ ТАФАККУРНИ ШАКЛЛАНИШИДА ТАРИХИЙ МАНБАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ	344
Norova Malika Alimboyeva Sabohat Maqsad qizi "KORRUPSIYANING TARIXIY ILDIZLARI VA HOZIRGI KUNDAGI KÒRINISHLARI"	349
Xodjaraxmanova Nazira Baxtiyar qizi THE ROLE OF FISCAL POLICY IN THE DEVELOPMENT OF THE STATE ECONOMY AND ITS IMPACT ON AGGREGATE DEMAND AND AGGREGATE SUPPLY	353
Yakubova Safiya Hamdamovna INGLIZ TILINI BOSHLANGICH SINFLARDA O'QITILISHNI TURLI YANGI METODLARI VA INGLIZ TILINI O'QITISHDA TALAFFUZNING AHAMIYATI	359
Safarov O'lmasbek Sultan o'g'li A. Q. Nurillayev HISTORY OF DEVELOPMENT OF ATHLETICS AND THE POSITIVE IMPACT ON HUMAN HEALTH	362
Бекназаров Алишер Жумабоевич Уралов Ғайрат Илхомович ЎЗА ҚАТОР ОРАСИГА КИМЎВИЙ ИШЛОВ БЕРИШДА ПУРКАГИЧ ҲАВО ОҚИМИ ТЕЗЛИГИНИНИНГ АҲАМИЯТИ	365
Qodirov Saidqosim Po'latxon o'g'li FIZIKA, TEXNIKA VA TIBBIY ASBOBSOZLIKDAGI MUVAFFAQIYATLAR	372
Сотволдиева Насиба Сохибжамол қизи ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ БЕРИШДА ПЕДАГОГ КАДРЛАРНИ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИ	377
Халиярова Гулноз Джумаевна ЭФФЕКТИВНОСТЬ МИНИИНВАЗИВНЫХ ХИРУРГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ ЛЕЧЕНИЯ ПРИ ТРУДНОДОСТУПНЫХ ЭХИНОКОККОВЫХ КИСТ ПЕЧЕНИ	386

**ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR BILAN DIFFERENSIAL YONDASHUV
ASOSIDA ISHLASH**

Raxmanova Dilfuza Uchqunovna

Chirchiq Davlat Pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Pedagogika-psixologiya yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida ona tili darslarida o'quvchilar bilan differensial yondashuv asosida ishlash dars jarayonida samarali ta'lim o'yinlaridan foydalanishning jihatlari haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Ona tili, til, nutq, tafakkur, metodika, boshlang'ich sinf, imlo, grammatika, pedagogik.*

Kirish (Introduction). Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fanining predmeti o'quvchilarga o'zbek tilini o'rgatish yo'llari va vositalari, ona tilini egallash, ya'ni nutqni, o'qish va yozishni, grammatika va imloni o'zlashtirib olish to'g'risidagi ilmdir.

Metodika maktab oldiga qo'yilgan ta'lim va tarbiyaviy vazifalardan kelib chiqib, ona tilini o'rgatishning vazifalarini va mazmunini belgilaydi, ta'lim-tarbiya berish jarayonini tekshiradi. Shu jarayonning qonuniyatlarini va ta'lim berish usullarining ilmiy asoslangan tizimini belgilaydi.

Ona tili o'qitish metodikasi-pedagogik fan, amaliy fan. Chunki u nazariyaga asoslanib o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash, o'stirishning amaliy vazifalarini bajaradi.

Ona tili o'qitish metodikasining predmeti ta'lim berish sharoitida ona tilini egallash, ya'ni o'qish va yozishni, fonetika, grammatika kabilarni bilib olish jarayoni hisoblanadi.

Ona tilidan ko'nikma va malakalarni shakllantirish, til haqidagi fanning ilmiy tushunchalar sistemasini o'zlashtirish qonuniyatlarini o'rganadi, til o'rganishning eng qulay metod va usullarini izlaydi.

Ma'lumki, jamiyatda til kishilar o'rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir. Tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi. Til borliqni oqilona, mantiqiy bilish vositasidir. Til birliklari yordamidagina bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani muhokama va xulosa bilan bog'lash amalga oshadi.

Til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'lanadi. Tilni egallash va nutq o'stirish bilan o'quvchining fikrlash qobiliyati ham o'sib boradi.

Maktabning vazifasi tilni kishilar orasidagi munosabatning rivojlangan nozik quroliga aylantirish hisoblanadi.

Ona tili o'qitish metodikasi fani ham ta'lim jarayonini tashkil etish shakllarini va usullarini ishlab chiqishda yuqoridagi maqsadlar asosida ish yuritadi.

Umumiy o'rta ta'limning bir bosqichi bo'lgan boshlang'ich ta'lim 1-4-sinflarni o'z ichiga oladi. Milliy dasturda ta'kidlanganidek, bu bosqichda ta'limning yangicha tizimini va mazmunini shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

-o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish;

-ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash va hokazo.

Milliy dasturda ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish bo'yicha ta'kidlangan ko'rsatmalar, uzluksiz ta'limni ta'minlash borasidagi islohotlarni amaliyotga tatbiq etish boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi

Til fikrni shakllantirish va bayon qilish, taassurot, his-kechinmalarni ifodalashda muhim o'rin tutadi. Til jamiyat a'zolarining bir-biri bilan o'zaro aloqasi uchun xizmat qiladigan vositadir. Bu vosita qanchalik takomillashsa, fikr shunchalik aniq, ta'sirchan ifodalanadi. Demak, kishilarning o'zaro munosabati, his-tuyg'ulari, kechinma va holatlari til vositasida aniqlashadi. Maktabda ona tilini chuqur o'rganish zarurati tilning bajaradigan asosiy vazifalaridan kelib chiqadi.[1]

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

BOSHLANG'ICH sinflarda ona tili o'qitish usuliyoti amaliy fan sifatida uch vazifani bajaradi:

1.Nimani o'qitish kerak? savoliga javob tayyorlaydi. Demak, ta'lim mazmunini, ya'ni boshlang'ich sinflar ona tili kursining dasturini belgilab beradi, o'quvchilar uchun darsliklar va turli o'quv qo'llanmalari yaratib beradi, ularni doimiy takomillashtirib, muvofiqligi va samaradorligini tekshirib boradi.

2.Qanday o'qitish kerak? savoliga javob tayyorlab beradi. Demak, ta'lim berishning metodlari, metodik priyomlari, mashqlar tizimi, u yoki bu qo'llanmani tatbiq etish tavsiyanomalarini, o'quvchilar amaliy ishlarining izchillik tizimini, dars va uning turlarini ishlab beradi.

3. Nega xuddi mana shunday o'qitish kerak? savoliga javob tayyorlab beradi. Bunda ilmiy nuqtai nazardan eng foydali metodlarni o'rganish, tanlangan metodlarni asoslash, tavsiyalarni eksperimental tekshirish va boshqalar tushuniladi.

Ona tili o'qitishning HAR bir bosqichi o'z xususiyatlariga ega. Masalan, maktabgacha tarbiya usuliyoti ona tilini o'rganishda, asosan, bolalar nutqini o'stirishni nazarda tutadi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish usuliyotining esa, o'quvchilar nutqini o'stirishdan tashqari barcha bo'limlari ilgari o'rganilgan qandaydir fundamentga asoslana olmaydi. Uning "boshlang'ich ta'lim usuliyoti" nomidanoq buni bilish mumkin. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish usuliyotining asosiy bo'limlari quyidagilardir:

Savod o'rgatish usuliyoti ya'ni elementar o'qish va yozishga o'rgatish. Bolalarga savod o'rgatish pedagogikadagina emas, balki ijtimoiy hayotda ham juda jiddiy qo'yilgan muammodir.

O'qish usuliyoti. Boshlang'ich sinflarda o'qish predmetining vazifasi, birinchi navbatda, bolalarni tez (me'yorida), to'g'ri, ongli va ifodali o'qish malakalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

Grammatika va imlo usuliyoti. Bu bo'lim elementar to'g'ri yozuvga va husnixatga o'rgatishni, grammatik tushunchalarni, boshlang'ich imlo malakalarini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

O'quvchilar nutqini o'stirish usuliyoti. Bu bo'lim boshlang'ich sinflarda alohida o'rin tutadi. Bolalar birinchi marta til, nutqni o'quv predmeti sifatida angelaydilar, ular xohlagan va qiziqarli narsalarnigina emas, balki zaruriy va hodisalar haqida o'ylab, Rejalashtirib nutq tuzish zarurligini ham tushuna boshlaydilar, ular o'zining grafik shakli bilangina emas, balki leksikasi, sintaktik va morfologik shakli bilan ham og'zaki nutqdan farq qiladigan yozma nutqni egallaydilar.[3]

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Boshlang'ich sinflarda ona tili mashg'ulotlari turi va mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'qish, yozuv, grammatik materialni o'rganish, kuzatishlar hamda o'quvchilarning ijtimoiy faoliyatlari bilan bog'liq holda, ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish.

2. Birinchi sinfga kelgan bolalarga savod o'rgatish, ya'ni ularni elementar o'qish va yozishga o'rgatish, bu ko'nikmalarni malakaga aylantirish.

3. Adabiy til me'yorlarini, ya'ni imloviy va finish belgilariga rioya qilingan savodli yozuvni, to'g'ri talaffuzni o'rganish, nutq va uslubiy elementlarni egallash.

4. Grammatika, fonetika, leksikologiyadan nazariy materiallarni o'rganish, tildan ilmiy tushunchalarini shakllantirish.

5. O'quvchilarni o'qish va grammatika darslari orqali badiiy, ilmiy-ommabop va boshqa adabiyotlar namunasi bilan tanishtirish, ularda badiiy asarni idrok etish ko'nikmasini hosil qilish.

Til muhim tarbiya vositasidir. Badiiy adabiyotlarni, gazeta, jurnallarni o'qigan bola o'zida eng yaxshi xislatlarni tarbiyalab boradi, muo-mala madaniyatini egallaydi.

Ona tili boshlang'ich sinflarda asosiy o'rinni egallar ekan, har bir o'quvchida ona tiliga qiziqish va muhabbatni tarbiyalab borish zarur.

Metodik fan sifatida ona tili o'qitish metodikasi boshlang'ich ta'lim standard belgilab bergan vazifalarni amalga oshiradi, ya'ni tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga oid metod va usullarni ishlab chiqadi.[2]

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Boshlang'ich sinflarda tilning rivojlanishi haqidagi masala maxsus o'rganilmaydi, albatta. Tilga jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liq holda rivojlanadigan hodisa sifatida ilmiy qarashga zamin yaratish muhim. Tilning leksik tomoni boshqalariga nisbatan harakatchan, tez rivojlanadigan bo'lgani uchun til leksikasi misolida boshlang'ich sinf o'quvchilari saviyasiga mos ravishda jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liq holda tilning ham rivojlanishi tushuntiriladi. Tilning leksik tarkibida yuz berayotgan o'zgarishlar yuzasidan o'qituvchi va o'quvchilarning kuzatishlari bolalarda dunyoni bilish haqidagi tasavvurni shakllantirishga mos material beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tilni o'zlashtirish jarayonini tekshirish shuni ko'rsatadiki, tilga ilmiy qarash asoslarini shakllantirish uning muhim bog'lanishlarini bilishga yordam beradi. Xususan, o'quvchilar so'zning tovush tomoni bilan uning leksik ma'nosi, so'zning morfemik tarkibi bilan leksik ma'nosi, so'zning grammatik ma'nosi bilan uniig ma'lum so'z turkumiga tegishliligi o'rtasidagi bog'lanish kabilarni bilib olishi shu maqsadga xizmat qiladi. Bu bog'lanish tilning fonetik, leksik, so'z yasalishi va grammatik tomonlarining bir-biriga ta'sir qilishini tavsiflaydigan umumiy

bog'lanishlarning xususiy ko'rinishi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, o'quvchilarning tilga xarakterli bog'lanishlarni tushuntirishlari tilni egallash nuqtai-nazaridagina emas, balki dunyoqarashlarini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Tildan bilim berishda o'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish muhimdir. O'qituvchi nazariy xarakterdagi umumlashtirish zarur bo'lgan faktik materiallarni yig'ish bosqichida ham, berilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish uchun ham bolalarning hayotiy tajribasiga, nutqqa oid amaliyotiga tayanadi. Tilga oid bilimni o'rganish natijasida o'quvchilarning nutq faoliyatining sifati o'zgaradi, ongliligi ortadi. Tilni o'rganishni hayot bilan bog'lash dunyoning moddiyligini tushunishga asos yaratadi. Bu bilan bir vaqtda ona tili darstrarining asosiy vazifalaridan biri bo'lgan o'quvchilarda to'g'ri kuzatish va o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda bayon etish ko'nikmasini o'stirish masalasi hal qilinadi. Bunda o'qituvchidan o'quvchilarda fikrlash ko'nikmasini shakllantirishga alohida e'tibor berish talab etiladi.

Tafakkur keng ma'noda hodisalarni boshqa hodisalar va jarayonlarga bog'liqligini hisobga olib, ularni har tomonlama mavjud belgilari YIG'INDISI bilan rivojlanishda qurish ko'nikmasini ta'riflaydi. Tafakkurning bunday sifati o'quvchilarda asta-sekin shakllana boradi va, o'z navbatida, ular kuzatish jarayonida dalillarni topish, ularni tahlil qilish va o'rganiladigan hodisalarning ayrim tomonlari o'zaro bog'liqligini aniqlash, taqqoslash va umumlashtirish ko'nikmasini egallab boradilar. Keyingi yillarda o'quvchilarning o'quv faoliyati tobora izlanish xarakterini olib bormoqda. Tilni o'rganishda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ayrim qoida va aniqliklarni yodlab olish emas, balki atrofdagi hayotni kuzatish asosida o'quvchilarning o'zlari "topgan" yoki adabiy manbalardan tayyor olingan til materialini maqsadga muvofiq analiz va sintez qilish etakchi hisoblanadi. O'rganiladigan grammatik, so'z yasalishiga oid, leksik tushunchalarning mavjud belgilarini aniqlash jarayonida faol qatnashish, bilib olingan dalillarni o'xshash yoki farqli tomondan qiyoslash, shuningdek, o'rganilgan nazariy bilimlarni har xil nutqiy faoliyatga ijodiy tatbiq etish — bularning barchasi o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmasini o'stirish uchun zamin, shart-sharoit yaratadi. Bunda muhim omillardan biri o'quvchilarning aqliy faoliyatini o'qituvchi tomonidan maqsadga muvofiq boshqarish, ularda orfografik, grammatik yoki leksik-stilistik vazifalarni hal qilishning umumiy metodlarini shakllantirish hisoblanadi.

Ona tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish masalasini hal qilishda maktabda o'zbek tilini o'rgatishga asos bo'ladigan material alohida qimmatga ega.

O'quvchilarda dunyoqarash asoslarini shakllantirish ko'pqirrali jarayon bo'lib, maktabda va maktabdan tashqarida olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy ishlarning barcha tizimida hal qilinadi.[4]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1."Ona tili o'qitish metodikasi" ma'ruzalar matni.Andijon 2018-yil
- 2."Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent "Nosir" nashriyoti 2009
- 3."Ona tili o'qitish metodikasi".Jizzax 2013-yil
- 4.Abdullayeva Q., Rahmonova S. Ona tili darslari (usuliy qo'llanma). Toshkent, 1999.